

BANKLARNING LIKVIDLILIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Xolbayev Samandar Abduqulovich

Bank-moliya akademiyasi magistri.

BIA MSc-36 guruh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14543568>

Annotatsiya. Har bir mamlakat iqtisodiyotida banklar muhim o'rin egallaydi, va shu bilan birga iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishlar bank tizimida ham ijobiy o'zgarishlar va rivojlanishlarga sabab bo'ladi. Quyida bank likvidliligiga tasir etuvchi omillarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: likvidlilik, bank aktivlari, kredit resurslari, risklilik, diversifikatsiya, pul oqimlari, depozitlar.

Bank likvidliligiga tarif keltiradigan bo'lsak, bankning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajar olish imkoniyati bo'lib hisoblanadi, shunga ko'ra bank aktivlarning eng likvidlisi pul mablag'lari bo'lib, bank mijozlarning to'lov qobiliyati yuqoriligi yoki kam daromadlilik bankning faoliyatiga ham uzviy tasir ko'rsatadi. Bu muammolar o'z ichiga mablag'lar to'plash va egasi bo'lgan kreditlarni qaytarishning qiyinchiliklari, bank depozitlaridan mablag'lar sarflash va banklarga qo'shimcha mablag'lar kiritish zaruriyatini chaqiradi.

Likvidlik tijorat banklari ishonchliligi va barqarorligi asosini tashkil etadi va ularning to'lovga qobiliyatli bo'lishiga zamin yaratadi. Banklar likvidligi ularning to'lov qobiliyati va ishonchli bo'lishini ta'minlashda zarur kategoriya hisoblanadi. Tijorat banklarining mijozlar va kreditorlar oldida o'z imidjini saqlab qolishi uchun eng avvalo ularning likvidligi va to'lov qobiliyati mustahkam bo'lishi lozim. Bank likvidligi bo'yicha risklarning ortishiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjudki, bu omillar bank likvidligiga alohida ahamiyat berishni va bank likvidligi bo'yicha xatarni doimiy ravishda kuzatib borishni talab qiladi. Shu sababli banklar o'z daromadidan kechib bo'lsa ham, likvidlikni saqlab turishga majbur. O'z navbatida, resurslar banklarning daromadlilikini oshirish maqsadiga yo'naltirilsa, unda bu bankning likvidligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bank sohasida likvidlilik, turli omillar orqali oshirilishi mumkin:

1. **Naqd pul mablag'lari:** Banklar uchun likvidlikning asosiy manbai nakd mablag'lar hisoblanadi. Bu mablag'lar, bankning depozitlari, xalqaro valyutadagi mijozlar tomonidan amalga oshirilgan valyuta almashtirish operatsiyalari natijasida olish, omonatlarni olish va sotish va boshqa bank faoliyatlaridan ortiqcha mablag'lar hisoblanadi.

2. **Qisqa muddatli sertifikatlar:** Banklar o'zlariga murojaat qilingan yoki boshqa tashqi manbalardan kichik muddatli sertifikatlar sotib oladilar.

3. Bu sertifikatlar, bankning mablag'larini muddati tugagan kreditlarga investitsiyalashni yaxshi hisoblashi mumkin bo'lgan muddatli maqsadli mablag'larini olib borish uchun ishlatiladi.

4. **Korporativ qimmatli qog'ozlar:** Banklar, korporativ qimmatli qog'ozlar, masalan, qog'ozlar bozorida bozorlik qilish orqali yoki korxonalar hissasi bilan investitsiyalash orqali likvidlikni oshirishadi.

5. **Banklararo bozorlar:** Banklar o'zaro moliyalashish orqali ham likvidlikni oshira olishadilar. Bu banklar orasidagi kichik muddatli kreditlar, omonatlar va qarzlar orqali amalga oshiriladi.

6. **Boshqa moliyaviy vositalari:** Banklar, moliyaviy munosabatlarni oshirish uchun boshqa moliya vositalaridan foydalanishlari mumkin, masalan, banklarning depozitlari, xorijiy banklar orqali kreditlar va boshqa moliyaviy vositalar.

Bu omillar banklar uchun likvidlikni oshirishda asosiy vositalardir va ularga o'rtacha pul miqdori, kredit portfeli tuzilishi va boshqa moliyaviy omillar bo'yicha duch kiritish orqali e'tibor beriladi.

Banklar likvidligini *ob'ektiga ko'ra, manbasiga ko'ra, vaqtinchalik xususiyatiga ko'ra, to'lov mablag'larining turi bo'yicha*, ajratib, tahlil qilishimiz mumkin. Banklararo bozorning rivojlanishi vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini banklar o'rtasida qayta taqsimlanishiga imkoniyat tug'diradi. Undan bank o'zining likvidligini ta'minlashi uchun turli xil muddatda mablag'larni jalb etishlari mumkin, xususan, bir kundan to bir necha oygacha bo'lgan muddatni tashkil etadi. Bu mablag'larni banklararo kredit resurslari bozoridan qay darajada jalb qilishi iqtisodiy kon'yunkturaga, bank nufuziga va banklararo bozordagi boshqa tijorat banklarining faoliyati bilan bog'liq. Banklararo kredit resurslari bozori mamlakatimizda o'z faoliyatini yuritmoqda, unda bank resurslarini sotish va sotib olish indikatorlari e'lon qilinadi va qatnashish huquqini olgan banklar bo'sh to'rgan bankning resurslarini sotadi, o'zining majburiyatlarini bajarish uchun etishmagan mablag'larini boshqa banklarning mablag'lari hisobidan jalb qiladi.

Bu jarayon banklararo bozordagi eng arzon va qulay usullardan biri hisoblanadi. Bunda bank o'zining resurslarini mijozlar uchun joylashtirmasdan, balki boshqa banklarga o'zining bo'sh turgan resurslarini joylashtirish siyosatini olib boradi.

Daromad keltiruvchi aktivlarning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ular shunchalik bankka daromad olib keladi. Bunda bank yuzaga keladigan xatolarni o'z zimmasiga oladi.

Aktivlarning tarkibini tartibga solish uchun idrokka tayanishni taqozo etadi. Bank rahbarining foyda olishga to'xtovsiz intilishi aktivlar bilan bir vaqtning o'zida likvidlikni ham yo'qotib qo'yishi mumkin.

Aktivlarning diversifikatsiyalanishi bank likvidligiga va uning umumiy faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ularning diversifikatsiyalanishida bank aktivlari, kredit qo'yilmalari, qimmatli qog'ozlar portfeli, xorijiy valyutalar tarkibi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi. Aktivlar qanchalik diversifikatsiyalangan bo'lsa, bankning likvidlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Banklarda depozitlarning sifati ularning barqarorligiga bog'liq. Depozitlar qanchalik barqaror bo'lsa, bank likvidligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ular yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh to'rgan pul mablag'lari hisobidan muddatli, jamg'arma va talab qilib olinguncha depozitlar (omonatlar), jamg'arma (depozit) sertifikatleri, boshqa depozitlarning turlari bilan shakllanadi. Depozitlarning barqaror qismining ko'payib borishi bankning likvidli mablag'lariga bo'lgan talabini kamaytiradi.

Ma'lumki, tijorat bankining likvidligi to'g'ridan-to'g'ri, bankdagi hisobvaraqlar orqali o'tuvchipul oqimlarining xususiyatlari bilan bog'liq. Aynan, tijorat banklarining xususiyati pul oqimlari tizimi sifatida, bank likvidligi tushunchasining o'ziga xos komponenti sifatida aloqa qiladi, bunda likvidlik tijorat bankining mavjud majburiy sharti bo'lib qoladi. Bank uchun eng muhimi hozir va kelajakda kirim va chiqim qilinadigan pul oqimlarining muvozanatini ta'minlashning real va potentsial imkoniyatlari zarur. Tijorat bankining likvidligi dinamik holatda bo'lganda, u balansning statistik ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi va likvidlik darajasining o'zaro nisbatini aniqlash orqali belgilanadi. Pul oqimlarida yuzaga keladigan salbiy tafovutlar zaxira manbalarining hisobidan qoplanishi mumkin.

Fikrimizcha, pul mablag'larini resursi sifatida qisqa muddatga bankka jalb qilish, ularni uzoq muddatli aktivlarga joylashtirish, iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik natijasida mablag'ning chiqib ketish jarayonlari bankning likvidlik darajasini pasaytiradi, va aksincha, xalqaro kapitallarning banklarga kirim qilinishi bankning likvidlik darajasini oshiradi. Shu bilan birga, bank likvidligining o'zgarishiga «bankka jalb qilingan resurslarga belgilangan foiz stavkasi bilan milliy valyuta kursining o'zgarishi», kreditlar va depozitlar uchun o'rnatilgan foiz stavkalari ham ta'sir etadi.

REFERENCES

1. Lopomo Beteto Vegner, D. (2020). Likvidlik siyosati va moliyaviy zaiflik. Iqtisodiyot va moliya xalqaro sharhi, 70, 135–153. <https://doi.org/10.1016/j.iref.2020.06.008>.

2. Rakhimov, A. (2021). Issues Of Increasing Customers Satisfaction Grade With Banking Services. *International Finance and Accounting*, 2021(2), 15.
3. Rakhimov, A., & Mamadjonov, S. (2022). Market Risks In Commercial Banks: Methods Of Assessment And Analysis. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 3(3).
4. Berdiyarov B. (2020) Impact of the monetary policy of the central bank on the banking system liquidity. *International Journal of Economics, Business and Management Research*. www.ijebmr.com, Volume 4, Issue 1, ISSN 2456-7760.
5. Making Public in a Privatized World David A. McDonald London, United Kingdom ZED-BOOKS-LTD 2016 Paperback
6. Mamarasulov U.M. *Iqtisodiyot va bozor munosabatlari*. - T.: «Navruz», 2016.
7. Кузнецова А.И. *Инфраструктура: Вопросы теории, методологии и прикладные аспекты современного инфраструктурного обустройства*.
8. *Геоэкономический подход*. М.: Кои Книга, 2016.